

**GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA
ULARNING YECHIMI**

Azamova Sitora Ayonovna

SHDPI Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Arolova Zarina Lochin qizi

*SHDPI Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-kurs
talabasi*

Annotatsiya: Maqolada hozirgi kundagi eng muhim global muammolardan biri ekologik muammo va uning yechimi haqida fikr yuritilgan. Har bir inson uchun tabiatni asrash va unga yaxshi munosabatda bo'lish, hamda ekologiya atamasi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: milliy tarbiya, ekologiya, ekologik ong, ekologik madaniyat, globallashuv, metod, sivilizatsiya, avesto, hadis.

Insonni o'rab turuvchi borliq insoniyat mavjudligining zaruriy asosidir. Tabiat barcha ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarda insonlar faoliyatining moddiy asosi bo'lib kelgan. Inson va tabiat bir-biridan ajralmas va o'zaro uzviy bog'liqdir. Chunki tabiat har bir odam va butun jamiyat uchun zaruriy hayot muhiti va moddiy resurslarning yakka-yu yagona manbaidir. Tabiat va tabiiy resurslar kishilik jamiyati vujudga keladigan va rivojlanadigan asos kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiradigan birinchi manbaidir. Tabiat va jamiyat, bir-biri bilan bog'liq holda bir butunlikni tashkil etadi. Biroq insonning tabiatga bo'lgan ta'siri esa, ongli ta'sir iuda tezlik bilan bormoqda. Insoniyatning tabiiy jarayonlarga ta'siri yoki yomon munosabatda bo'lishi natijasida XX - asr o'rtalarida ekologik muammolar ko'payishiga olib keldi va bu muammolar avj olib ketdi. Bularning barchasini oldini olish mumkin. Buning uchun har bir inson "ekologik ong" tushunchasini o'zida singdirishi lozim. Ekologik ong va tafakkurga ega bo'lgan har bir kishi o'z mehnat

faoliyatida tabiatga ta'sir etish qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko'rib, ongli ravishda ish tutadi. Ekologik tarbiya degan tushuncha ham mavjud. Ekologik tarbiya-axloqiy tarbiyaning ajralmas qismidir. Ekologik ta'lim va tarbiya to'g'risidagi dastlabki oddiy tushunchalar o'rta maktabdan boshlanadi. Maktabda o'tiladigan nazariy ekologiya, biologiya fanlari asosida o'qitilib, o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash, tashqi muhitni ehtiyotkorlik bilan muhofaza qiluvchilar etib tarbiyalash ishiga yordam berishi kerak. Ota-onaning ekologik bilimlarni yaxshi o'zlashtirishi kelajak avlodga toza barqaror ekologik muhitni yaratib berishga ko'maklashadi.

Globalashuv sharoitida ekologiya, atrof-muhitni muxofaza qilish, tabiiy resurslaridan tizimli va tartibli foydalanish, shuningdek yangi innovatsion loyihalarni yaratish va tadbiiq etish bugungi kunning eng muhim va dolzarb muammolaridan biridir. Hozirgi kunda yer sharining turli mintaqalarida yuz berayotgan ekologik tangliklar tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirish va unga ko'proq e'tibor qaratish lozimligini anglatadi. Yurtimizda yosh avlodni jismonan va sog'lom o'sishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ammo sog'lom turmush tarzini shakllantirishni barqaror ekologik muhitsu tasavvur etib bo'lmaydi. Atrof-muhitning tozaligi bolalarning sog'lom va yetuk voyaga yetishining asosiy omilidir. Hozirgi kundagi ekologik muammolar, ekologik muhitning ahvoli, bolalardagi kamqonlik, turli yuqumli kasalliklar, allergiya, nuqsonli tug'ilishlar ekologiyaning ta'siri haqidagi adabiyotlarni o'rganib chiqish, zamonaviy pedagogik izlanishlarni tahlil qilish va ular asosida yangi metodlarni ishlab chiqish bolalarda yoshlikdanoq ekologik tarbiyaga bo'lgan ehtiyojni oshirib bormoqda.

Ekologiyani asrashga doir diniy bilimlardan xabardorlik ham ota-onaning zimmasiga yuklanadi. Ta'lim tarbiyaga bunday yondashuv uch tomonlamalikni tashkil etadi: birinchidan, farzandlar ota-onadan tarbiyaviy o'g'itlarni o'rganadi; ikkinchidan, ekologiyaga doir bilimlarni asl mohiyatini, uning oqibatlarini anglaydi; uchinchidan, diniy qarashlar asosida tarbiyalanuvchilar gunoh va savob tushumchasini mukammal o'rganadi. Ekologik madaniyat ham shunga qarab

shakllanib boradi. Tabiat o'ziga xos murakkab tizim bo'lib, inson va jamiyat uning hosilasidir. Inson tabiatdan havo, suv, oziq-ovqat, yonilg'i ham ashyolarini oladi va o'z ehtiyojlarini qondiradi hamda hayotiy faoliyati davomida unga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Natijada tabiat tuchun yot bo'lgan yangi obyektlar vujudga keladi. Bular: shahar va qishloqlar, zavodlar, fabrikalar, yo'llar, konlar, suv omborlari va boshqalar. Inson aql-idroki va mehnati tufayli yuzaga kelgan bunday antropogen landshaftlar atrof-muhitga o'z ta'sirini kursatmay qolmaydi. Yer yuzida aholi sonining keskin o'sib borishi, fan-texnikaning shiddatli taraqqiyoti, mamlakatlar hududida tabiiy resurslarning bir tekis tarqalmaganligi mavjud tabiiy resurslardan imkon qadar ko'proq foydalanish va shu yo'l bilan jamiyat taraqqiyotini tezlatishni taqozo qiladi. Natijada tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro munosabat qonunlari buziladi. Bu qonunlarning buzilishi ertami- kechmi ekologik inqirozga olib keladi. Ayniqsa, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida "Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari" fanini o'qitish muhim ahamiyatga ega. Agar biz tabiat qo'ynida tinch va sog'lom yashashni xohlasak, tabiat qonunlarini o'rganishimiz, o'zlashtirishimiz va uning qonunlari asosida o'z hayot faoliyatimizni, ish rejalarimizni, tuzishimiz shart. Tabiat rivojining majmui bo'lishi insoniyat tabiatiga tobora ko'p o'z ta'sirini. Inson faqat har xil o'simlik va hayvonot turlari o'rnini o'zgartiribgina qolmay, ko'rsatadi. Binobarin, ularni shu darajada o'zgartiradiki uning faoliyati natijasida yer shari umumiy o'limga mahkum bo'lishi mumkin. Shunday qilib, inson nafaqat tabiatni o'rganib biladi, balki uni o'rab turgan dunyoni o'zgartiradi ham. Kishilar o'zlari uchun turar joylar barpo etar ekanlar, buni atrof-muhitning o'simlik va hayvonot dunyosiga qandaydir salbiy ta'siri bo'ladi, natijada tabiat kambag'allashib boradi. Inson qurilish materiallari sifatida tabiiy o'rmonlarni keragidan ortiqcha kesadi, demak, o'simlik dunyosi qisqarib u o'z navbatida atmosfera havosini musaffo bo'lishiga rahna tug'diradi. Tuproq eroziyaga uchraydi, yer osti suvlari kamaya boradi, ko'chkilar paydo bo'lib, sel natijasida jarliklar hosil bo'lishi mumkin. Bu lavha insonning tabiatga ko'rsatgan ta'siridan bir parcha xolos. Tabiatga nisbatan ko'r-ko'rona yondashish, uning ehsonlaridan ayovsiz foydalanish pirovardida og'ir asorat qoldirishi mumkin. Ko'plab kasalliklar

ham havoning buzilishi oqibatida kelib chiqmoqda. Bularning barchasini oldini olish insoniyat qo'lidan keladi. Atmosfera havosini muhofaza qilishning asosiy yo'nalishi shahar va aholi yashaydigan punktlarda atmosfera havosining sifatini yaxshilash, keyinchalik sanitar-gigiyenik qoidalarga rioya qilish buning uchun respublikamizning barcha hududlarida chiqindilarni kamaytirish, kam chiqindili texnologiyalarni yaratish, chang to'plovchi va tozalovchi qurilmalarni ko'paytirish va ishlab chiqarish zarur ekanligini barchamiz bilishimiz lozim. Tabiatni asrash uni muhofaza qilish har bir insonning burchidir.

Xulosa o'rnida shuni aytamanki tabiatga qancha yaxshilik qilsak u ham bizga xuddi shunday javob qaytaradi. Tabiatni asraylik va uni har bir bergan tuhfa in'omini qadirlaylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. P.S.Sultonov-“Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari”
2. A.A.Nazarov-“Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish”
3. .Azamova.S.-“Maktab o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning asosiy maqsadlari va asosiy ko'rsatkichlari”
4. .B.P.Ahmedov-“Ekologiya va atrof -muhitni muxofaza qilish asoslari”.
5. Azamova S. EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA O ‘ZBEKISTON TA’LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK MADANIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 286-289.
6. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
7. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
8. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization

//Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.

11. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.

12. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.

13. Azamova S. EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA O 'ZBEKISTON TA'LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK MADANIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 286-289.

14. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.

15. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.

16. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.

17. Ayonovna A. S. A. A. S. YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING SAMARALI YO 'LLARI VA BOSQICHLARI //Farg'ona davlat universiteti. – 2023. – №. 6. – C. 136-136.